
**ЎЗБЕКИСТОН
ГЕОГРАФИЯ ЖАМИЯТИ
А Х Б О Р О Т И**

69 – жилд

*** * ***

**ИЗВЕСТИЯ
ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ОБЩЕСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

69 – том

*** * ***

**THE ANNALES
OF THE GEOGRAPHICAL SOCIETY
OF UZBEKISTAN**

Volume 69

Тошкент-2026

Илмий журнал таъсисчиси: Ўзбекистон География жамияти

Тахрир кенгаши раиси: Норинбаев Ойбек Кабилжанович

**“Ўзбекистон География жамияти ахбороти” илмий журнаlining
халқаро тахрир кенгаши:**

Абдуллабеков Қ.Н. - ф.-м.ф.д., профессор, Ўзбекистон ФА академиги (Тошкент, Ўзбекистон); **Ахмет Ертек Т.** - профессор, Туркия География жамияти раиси (Истанбул, Туркия); **Бабаев А.Г.** - г.ф.д., профессор, Туркменистон ФА академиги (Ашгабад, Туркменистон); **Гареев А.М.** – г.ф.д., профессор (Уфа, Россия); **Дружинин А.Г.** - г.ф.д., профессор (Ростов-Дон, Россия); **Медеу А.Р.** - г.ф.д., профессор, Қозоғистон Миллий ФА академиги (Алмати, Қозоғистон); **Мухаббатов Х.М.** - г.ф.д., профессор (Душанбе, Тожикистон); **Низамиев А.Г.** - г.ф.д., профессор (Ош, Қирғизистон); **Рафиқов В.А.** - г.ф.д. (DSc), профессор (Тошкент, Ўзбекистон); **Сатторов Ж.С.** - к.-х.ф.д., профессор, Ўзбекистон ФА академиги (Тошкент, Ўзбекистон); **Содиқов А.М.** - и.ф.д., профессор (Тошкент, Ўзбекистон); **Холматжанов Б.М.** - г.ф.д. (DSc), профессор (Тошкент, Ўзбекистон); **Холиқулов Ш.Т.** – к.-х.ф.д., профессор (Самарқанд, Ўзбекистон).

**“Ўзбекистон География жамияти ахбороти” илмий журнаlining
тахрир хайъати:**

Бош муҳаррир - Ҳикматов Ф.Ҳ. - г.ф.д., профессор

Аббасов С.Б. - г.ф.д., профессор; **Артикова Ф.Я.** – г.ф.н., доцент; **Ахмадалиев Ю.И.** - г.ф.д., профессор; **Миракмалов М.Т.** - г.ф.д., доцент; **Назаров М.И.** - г.ф.н., доцент; **Нигматов А.Н.** - г.ф.д., профессор; **Сабитова Н.И.** - г.ф.д., профессор; **Сафаров Э.Ю.** - т.ф.д., профессор; **Тожиева З.Н.** - г.ф.д., профессор; **Турдимамбетов И.Р.** - г.ф.д., профессор; **Фазилова Д.Ш.** – ф.-м.ф.д., профессор; **Шарипов Ш.М.** - г.ф.д., профессор; **Эгамбердиев А.Э.** - г.ф.н., профессор; **Эгамбердиев Х.Т.** - г.ф.д., профессор; **Зияев Р.Р.** - г.ф.ф.д. (PhD), доцент; **Эрлапасов Н.Б.** - г.ф.ф.д. (PhD), доцент; **Ҳакимов К.А.** - г.ф.ф.д. (PhD); **Авезов М.М.** - г.ф.ф.д. (PhD), доцент.

“Ўзбекистон География жамияти ахбороти” илмий журнали Ўзбекистон Республикаси Олий Аттестация комиссияси томонидан “11.00.00 - География фанлари” йўналиши бўйича диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Тахририят тақдим этилган мақолаларни тақриз қилиш ва қайтариб бериш мажбуриятини олмаган.

Веб сайт: www.uzbgeo.uz
ISSN 0135-9614

E-mail: uzbgeography.jam@gmail.com
© Ўзбекистон География жамияти, 2026

rayonda urbanizatsiya jarayonlari natijasida, istiqbolda, yirik shahar, katta shahar, o'rta shaharlar soni ortib borishi kutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони (<https://lex.uz/docs/5841063>)

2. Мавлонов А.М. Чўл шароитида шаҳарларнинг шаклланиши ва ривожланиши муаммолари (Бухоро вилояти мисолида). География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: 2010. – 38 б.-39 б.-40 б.-41 б. 44 – б. 132-б. 135-б.

3. Тожиева З.Н. Жиззах вилояти аҳолисининг ўсиши ва жойланишидаги ижтимоий-иқтисодий муаммолар. География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. -Т.: 1998 й.-34-б.

4. Тожиева З.Н., Ўзбекистон Республикасида демографик жараёнлар ва уларнинг ҳудудий хусусиятлари. География фанлари доктори (Doktor of Science) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. -Т.: 2017 й. 267-б.

5. Тожиева З.Н., Мусаев Б.М. «Мирзачўл иқтисодий райони ҳудудий-урбанистик таркибидаги ўзгаришлар» «Ўзбекистон география жамияти ахбороти» 2022 йил. 62-69 б.

6. <https://www.gazeta.uz/uz/2016/12/30/yangiye/>

7. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/04/07/5-tashabbus/>

Namozov J.A.*

SAMARQAND VILOYATI SUG'ORILADIGAN YER VA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOYIY-GEOGRAFIK JIHLARI

Аннотация. Mazkur maqolada Samarqand viloyatida sug'oriladigan yer va suv resurslaridan foydalanishning ijtimoiy-geografik jihatlari tadqiq etilgan. Yer-suv resurslarining hududiy taqsimlanishi, aholi soni dinamikasi, agrar ixtisoslashuv va suv bilan ta'minlanganlik darajasining o'zaro aloqadorligi ilmiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot natijalari 2010–2024-yillarda sug'oriladigan yerlar maydoni barqaror bo'lgan holda, ekin yerlari qisqargani va ko'p yillik daraxtzorlar ulushi ortganini ko'rsatadi. Tumanlar kesimida suvdan foydalanish samaradorligidagi tafovutlar hududiy, demografik hamda xo'jalik omillari bilan asoslangan. Tadqiqot yakunida yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishni takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Таянч со'злар: Samarqand viloyati, sug'oriladigan yerlar, suv resurslari, ijtimoiy geografiya, hududiy tafovut, suvdan foydalanish samaradorligi, irrigatsiya, demografik bosim.

Социально-географические аспекты использования орошаемых земель и водных ресурсов в Самаркандской области

Аннотация. В данной статье изучаются социально-географические аспекты использования орошаемых земель и водных ресурсов в Самаркандской области. Научно исследуется взаимосвязь между территориальным распределением земельных и водных ресурсов, динамикой населения, сельскохозяйственной специализацией и уровнем водоснабжения. Результаты исследования показывают, что в 2010–2024 годах площадь орошаемых земель оставалась стабильной, в то время как пахотные земли сократились, а доля многолетних древесных насаждений увеличилась. Различия в эффективности водопользования по районам обусловлены территориальными, демографическими и экономическими факторами. По итогам исследования разработаны научно-практические рекомендации по повышению рациональности использования земельных и водных ресурсов.

* Namozov Jo'rabek Abduazizovich - Chirchiq davlat pedagogika universiteti Geografiya kafedrası dotsenti, g.f.f.d.(PhD). Email: jurabek.n.a@gmail.com.

Ключевые слова: Самаркандская область, орошаемые земли, водные ресурсы, социально-географические особенности, территориальные различия, эффективность водопользования, орошение, демографическое давление.

Socio-geographical aspects of the use of irrigated land and water resources in Samarkand region

Annotation. This article studies the socio-geographical aspects of the use of irrigated land and water resources in the Samarkand region. The relationship between the territorial distribution of land and water resources, population dynamics, agricultural specialization, and the level of water supply is scientifically examined. The results of the study show that in 2010–2024, the area of irrigated land remained stable, while arable land decreased and the share of perennial tree plantations increased. Differences in water use efficiency across districts are based on territorial, demographic, and economic factors. At the end of the study, scientific and practical recommendations were developed to improve the rational use of land and water resources.

Key words: Samarkand region, irrigated land, water resources, social geography, territorial differences, water use efficiency, irrigation, demographic pressure.

Kirish. O'zbekistonning sug'orma dehqonchilik mintaqalarida yer va suv resurslaridan foydalanish masalasi nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ijtimoiy barqarorlik, hududiy rivojlanish va qishloq aholisi turmush darajasi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, Samarqand viloyati kabi aholi zich, tarixiy sug'orma dehqonchilik an'analari kuchli hududlarda sug'oriladigan yerlar va suv resurslari ishlab chiqarishning oddiy tabiiy omili bo'lib qolmay, balki demografik bosim, bandlik, qishloq infratuzilmasi, dehqonchilik ixtisoslashuvi hamda hududiy tengsizliklarni belgilovchi asosiy ijtimoiy-geografik resursga aylanadi.

Samarqand viloyati Zarafshon vodiysining o'rta qismida joylashgan bo'lib, hududning tabiiy-sharoitlari, tarixiy irrigatsiya tarmoqlari, tumanlar kesimidagi aholi joylashuvi va xo'jalik ixtisoslashuvi o'zaro murakkab hududiy tizimni shakllantiradi. Viloyatda sug'oriladigan yerlarning mutlaq maydoni nisbatan barqaror bo'lsa-da, demografik o'sish, tomorqa yuklamasi, suv manbalariga hududiy yaqinlik va meliorativ holatdagi tafovutlar natijasida yer-suv resurslarining ijtimoiy qiymati yildan-yilga ortib bormoqda. Shu bois, mazkur resurslarni ijtimoiy geografiya nuqtai nazaridan baholash, ya'ni ularni aholi soni, tumanlararo zichlik, agrar ixtisoslashuv, mehnat bandligi va hududiy boshqaruv bilan uzviy bog'liq holda o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir [3; 5].

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yer va suv resurslaridan foydalanish masalasi xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xorijiy tadqiqotlarda R. Barlowe, T. Tietenberg, K. Wiebe resurs iqtisodiyoti va yer bozorlarini tahlil qilganlar. M. Falkenmark, D. Molden, P. Droogers suv taqchilligi, irrigatsiya samaradorligi va oziq-ovqat xavfsizligi masalalarini yoritganlar. R. Lal tuproq sifati va barqaror qishloq xo'jaligi bo'yicha fundamental ishlar olib borgan [11; 12; 13].

O'zbekiston olimlaridan Y.I. Ahmadaliyev yer resurslaridan foydalanishning geoeologik asoslarini, M.A. Fayzullayev qishloq xo'jaligi rivojlanishining iqtisodiy-geografik xususiyatlarini, R.K. Oymatov sug'oriladigan yerlarning ekologik holatini xaritaga olish metodologiyasini ishlab chiqqanlar [8; 9; 10]. Biroq sug'oriladigan yer va suv resurslaridan foydalanishning ijtimoiy-geografik jihatlari, xususan aholi joylashuvi, bandlik va demografik bosimning ta'siri Samarqand viloyati misolida yetarli darajada kompleks o'rganilmagan. Mazkur maqola ana shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi Samarqand viloyatida sug'oriladigan yer va suv resurslaridan foydalanishning ijtimoiy-geografik jihatlari tahlil qilish, ularning hududiy taqsimlanishi, demografik bosim, qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi hamda suv bilan ta'minlanganlik darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, shuningdek, yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Maqsad doirasida quyidagi **vazifalar** belgilab olindi: Samarqand viloyatida sug'oriladigan yer va suv resurslaridan foydalanishning ijtimoiy-geografik asoslarini ilmiy adabiyotlar hamda mavjud yondashuvlar asosida tahlil qilish; viloyatda 2010–2024-yillarda sug'oriladigan yerlar tarkibidagi o'zgarishlar dinamikasini aniqlash; aholi sonining o'sishi va hududiy joylashuvining sug'oriladigan yer va suv resurslariga ta'sirini ijtimoiy-geografik nuqtai nazardan baholash; tumanlar kesimida yer va suv resurslarining hududiy taqsimlanishi hamda ulardan foydalanish samaradorligidagi tafovutlarni aniqlash; sug'orish infratuzilmasi, irrigatsiya tarmoqlari holati, xo'jalik ixtisoslashuvi va mehnat zichligining resurslardan foydalanish natijadorligiga ta'sirini asoslash; Samarqand viloyatida yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishni takomillashtirishga qaratilgan hududiy differensial yondashuv va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

• **Statistik tahlil metodi** – yer va suv resurslarining dinamikasi, aholi soni o'zgarishi va qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmini baholashda;

• **Qiyosiy-geografik metod** – tumanlar kesimida resurslardan foydalanish samaradorligini taqqoslashda;

• **Tizimli yondashuv** – yer-suv resurslari, aholi joylashuvi va iqtisodiy faoliyat o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlashda;

• **Iqtisodiy-geografik tahlil** – resurs samaradorligini baholashda, ya'ni bir birlik resursga (yer yoki suv) to'g'ri keladigan qishloq xo'jaligi mahsuloti qiymatini hisoblashda.

Asosiy qism. Ma'lumotlar tahlili Samarqand viloyatida sug'oriladigan yerlar maydoni miqdor jihatidan barqarorligini ko'rsatadi. 2010-yilda viloyatda jami sug'oriladigan yerlar 379,2 ming gektarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 379,5 ming gektarga yetgan. Biroq yerlarning ichki tarkibi sezilarli o'zgarishlarga yuz tutgan. Xususan, ekin yerlari 253,9 ming gektardan 243,7 ming gektarga, ya'ni 10,2 ming gektarga (4%) qisqargan. Aksincha, ko'p yillik daraxtzorlar 56,4 ming gektardan 66,8 ming gektarga ko'payib, 18,4 foizlik o'sishni namoyon etgan [3; 6].

Mazkur tarkibiy siljishlarni bir necha ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan izohlash mumkin. **Birinchi**dan, viloyatning qator tumanlarida ekin maydonlarining bir qismi daromadliligi yuqori bo'lgan bog'dorchilik va uzumchilikka o'tkazilgan. **Ikkinchi**dan, aholi zich joylashgan hududlarda tomorqa va bog'dorchilikning barqaror saqlanishi qishloq oilalarining oziq-ovqat xavfsizligi va qo'shimcha daromad manbai sifatidagi funksiyasini kuchaytirgan. **Uchinchi**dan, suv resurslari taqsimoti qiyinlashgan sharoitda ekin tarkibining moslashuvi hududiy differensial boshqaruvning amaliy ko'rinishi sifatida yuzaga kelmoqda [3; 4].

Viloyatda jami sug'oriladigan maydon saqlanayotgan bo'lsa-da, uning funksional tarkibi o'zgarib bormoqda (1-jadval). Bu holatni oddiy statistik o'zgarish sifatida emas, balki qishloq joylarda mehnat bandligi, mahsulot tarkibi va suvga bo'lgan talabning qayta shakllanishi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, daraxtzorlar ulushining ortishi suvdan foydalanish rejimi, mehnatning mavsumiy taqsimoti va mahalliy bozorlar bilan integratsiyalashuv nuqtai nazaridan yangi hududiy tendensiyani ifodalaydi [3;12].

Aholi dinamikasi va demografik bosim. Samarqand viloyatining asosiy ijtimoiy-geografik xususiyati aholi sonining tez o'sishi bilan bog'liq. Viloyat aholisi 2010-yildagi 3119 ming kishidan 2024-yilda 4208,5 ming kishiga yetgan, ya'ni mutlaq hisobda 1089,5 ming kishiga yoki 34,9 foizga ko'paygan. Aholi sonining bunday o'sishi yer va suv resurslariga bo'lgan bosimni kuchaytiradi, chunki sug'oriladigan yerlarning mutlaq maydoni deyarli kengaymagan [3; 8].

Hisob-kitoblar ko'rsatishicha, 2010-yilda viloyatda bir kishiga 0,122 gektar sug'oriladigan yer to'g'ri kelgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 0,090 gektarga tushgan. Demak, 14 yil ichida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yer bilan ta'minlanganlik qariyb 25,8 foizga qisqargan. Ijtimoiy-geografik jihatdan bu jarayon yerga bo'lgan tanqislikni, tomorqa va dehqonchilik resurslari ustidan raqobatni kuchaytiradi hamda

ayrim hududlarda bandlikni diversifikatsiya qilish zaruratini tug'diradi [3; 9].


1-jadval

Samarqand viloyatida sug'oriladigan yerlar tarkibining o'zgarishi (ming ga)

Ko'rsatkich	2010	2024	Farq	2024/2010, %
Jami sug'oriladigan yerlar	379.2	379.5	+0.3	100.1
Ekin yerlar	253.9	243.7	-10.2	96.0
Ko'p yillik daraxtzorlar	56.4	66.8	+10.4	118.4
Tomorqa va bog'dor-sabzavot	62.9	62.9	+0.0	100.0
O'rmon	6.0	6.0	+0.0	100.0

Manba: Jadval Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi kadastr agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Tumanlar kesimida aholi soni va sug'oriladigan resurslar bir xilda taqsimlanmagan. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, Urgut (559,2 ming kishi), Pastdarg'om (383,3 ming), Kattaqo'rg'on (293,8 ming), Ishtixon (275,9 ming), Payariq (273,3 ming) va Samarqand tumani (272,8 ming) demografik yuklama yuqori bo'lgan hududlar hisoblanadi. Shu bilan birga, Qo'shrabot, Nurobod va Paxtachi kabi tumanlarda aholi soni nisbatan kamroq bo'lsa-da, ularning sug'oriladigan maydonlari va suv bilan ta'minlanganligi tabiiy sharoitlar bilan cheklanadi. Natijada, aholining resurslar bilan ta'minlanganligi faqat son omiliga emas, balki landshaft, irrigatsiya tarmog'i va qishloq xo'jaligi ixtisoslashuviga ham bog'liq bo'ladi [4].



1-rasm. Samarqand viloyati tumanlarida aholi soni dinamikasi (ming kishi)

Manba: Rasm O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Aholi dinamikasi bo'yicha 1-rasm viloyatning barcha tumanlarida barqaror o'sish kuzatilganini ko'rsatadi. Bunday demografik sharoitda sug'oriladigan yerlarning ijtimoiy vazifasi kengayadi: ular nafaqat oziq-ovqat ishlab chiqarish manbai, balki qishloq joylarda bandlik va daromadni ushlab turuvchi asosiy hududiy tayanchdir. Shu sababli, yer-suv resurslaridan foydalanish strategiyasi tumanlar bo'yicha differensial bo'lishi, demografik

bosim yuqori hududlarda intensiv va suvni tejavochi texnologiyalarni ustuvor qo'llashga yo'naltirilishi zarur [8; 15].

Tumanlar kesimida yer va suvdan foydalanish samaradorligi. Sug'orish imkoniyatlari asosan Zarafshon daryosi va ichki irrigatsiya tarmoqlariga yaqinlik bilan belgilanadi. Tadqiqot ma'lumotlari asosida tuzilgan hududiy samaradorlik jadvali viloyat tumanlarida sug'oriladigan yerlar, ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati va suv resurslaridan foydalanish natijadorligi o'rtasida keskin tafovut borligini ko'rsatdi [5; 11].

2-jadval

Samarqand viloyatining ayrim tumanlarida yer va suvdan foydalanish samaradorligi

Tuman	Sug'oriladigan yer, ga	Suv resurslari, mln m ³	Yer samaradorligi	Suv samaradorligi
Urgut	30244	124.2	12744.3	31033.8
Tayloq	16269	73.0	11734.0	26150.7
Ishtixon	31500	140.4	11298.7	25349.7
Bulung'ur	29106	149.4	12699.1	24740.3
Oqdaryo	28867	109.7	7542.5	19847.8
Paxtachi	23681	246.8	4239.3	4067.7
Pastdarg'om	53938	410.2	4919.0	6468.1
Nurobod	7618	45.7	4257.0	7096.3
Narpay	27442	208.6	5514.5	7254.6

Manba: Jadval Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi kadastr agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi 2024 yil ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Urgut, Tayloq, Ishtixon va Bulung'ur tumanlari suvdan foydalanish samaradorligi bo'yicha oldingi o'rinlarda turadi. Masalan, Urgut tumanida 1 m³ suv hisobiga to'g'ri keladigan mahsulot qiymati 31033,8 so'mni, Tayloqda 26150,7 so'mni, Ishtixonida 25349,7 so'mni tashkil etgan. Mazkur tumanlar uchun nisbatan yuqori samaradorlikning asosiy omillari sifatida mehnatning yuqori zichligi, bog'dorchilik va sabzavotchilikning rivojlanganligi, suv manbalariga qulay yaqinlik hamda xo'jalik ixtisoslashuvining diversifikatsiyalashganligi ko'riladi [5; 7].

Bunga qarama-qarshi ravishda, Paxtachi, Pastdarg'om, Narpay va Kattaqo'rg'on tumanlarida suvdan foydalanish samaradorligi ancha pastroq. Pastdarg'omda suv resurslari hajmi eng kattalardan biri bo'lsa-da, 1 m³ suvga to'g'ri keladigan mahsulot qiymati 6468,1 so'm bilan yuqori samaradorlik zonalaridan ancha orqada qoladi. Paxtachida bu ko'rsatkich 4067,7 so'mni tashkil etadi. Mazkur vaziyat suv sarfi hajmi bilan iqtisodiy qaytim o'rtasidagi nomutanosiblikni ko'rsatadi va u tumanlarda yer-suv resurslarining ijtimoiy-iqtisodiy tashkil etilishi bir xil emasligini tasdiqlaydi [14].

Yuqorida keltirilgan 2-jadval natijalariga ko'ra, suvdan foydalanish samaradorligidagi tafovutlar faqat tabiiy omillar bilan izohlanmaydi. Aholi zichligi, mehnat unumdorligi, ekinlar tarkibi, fermer xo'jaliklarining boshqaruv sifati va suvni taqsimlash mexanizmlarining holati ham muhim rol o'ynaydi. Demak, Samarqand viloyatida suv resurslari bilan ta'minlanganlik va ularni samarali ishlatish masalasini ijtimoiy geografiya doirasida, ya'ni tabiiy makon va ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat uyg'unligi nuqtai nazaridan baholash maqsadga muvofiqdir [8; 12].

Muammolar va ularning ijtimoiy-geografik tahlili. Tahlillar Samarqand viloyatida sug'oriladigan yer va suv resurslaridan foydalanishga ta'sir etuvchi bir necha tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

Birinchi muammo – demografik bosim. Aholi soni ortib borayotgan bir vaqtda yer maydonining barqaror qolishi qishloq joylarda bir kishiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yer ulushini qisqartirmoqda. Bu esa tomorqa yuklamasi, mehnatning ortiqcha zichligi va noagrар bandlikni kengaytirish zaruratini kuchaytiradi [16].

Ikkinchi muammo – suv resurslarining hududiy notekis taqsimlanishi. Tumanlarning bir qismi irrigatsiya tarmoqlariga yaqin bo'lgani sababli suvdan ancha barqaror foydalanadi, boshqalari esa suv yetkazib berishdagi uzilishlar, ichki kanallarning texnik holati yoki nasos xarajatlarining yuqoriligi tufayli nisbatan noqulay sharoitga ega. Shu bois, viloyatda yagona va bir xil boshqaruv modeli emas, balki tumanlarning ixtisoslashuvi hamda resurs cheklovlarini inobatga oluvchi differensial hududiy yondashuv zarur [2; 15].

Uchinchi muammo – yer-suv samaradorligidagi nomutanosiblik. Ayrim tumanlarda yirik sug'oriladigan maydon va katta suv sarfi mavjud bo'lsa-da, mahsulotning qiymat qaytimi nisbatan past. Bunda ekin tarkibi, qayta ishlash tarmoqlarining sustligi, resurslar hisobini yuritish darajasi va agrotexnologik intizom kabi omillar muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan, resurslardan foydalanishni samarali tashkil etish faqat suv hajmini oshirish bilan emas, balki xo'jalik ichki boshqaruvini takomillashtirish, raqamli monitoring, masofadan zondlash ma'lumotlaridan foydalanish va resurs sarfini dalalar kesimida nazorat qilish bilan bog'liq [14].

To'rtinchi masala – qishloq aholisining ijtimoiy barqarorligini ta'minlash. Sug'oriladigan hududlarda bog'dorchilik, sabzavotchilik, chorvachilik uchun yem bazasini kengaytirish va qishloq mahsulotlarini qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish yer-suv resurslaridan olinadigan ijtimoiy samaraning oshishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, demografik bosim yuqori bo'lgan Urgut, Pastdarg'om, Payariq, Ishtixon va Samarqand tumanlarida suvni tejovchi texnologiyalar, tomchilatib sug'orish, ichki kanal va zovur tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, kadastr va suv taqsimotini raqamlashtirish kabi choralar ustuvor bo'lishi kerak [7; 15].

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Samarqand viloyatida yer va suv resurslarining ijtimoiy-geografik talqini oddiy agrar statistikadan ancha kengroqdir. Aholi sonining ortishi, tumanlarning tabiiy sharoiti va irrigatsiya tarmoqlarining turli darajada rivojlanganligi sababli bir xil maydon yoki suv hajmi hududlarda bir xil ijtimoiy samara bermaydi. Masalan, Urgut va Tayloqda suvdan foydalanish samaradorligi yuqori bo'lgani holda, Pastdarg'om va Paxtachida resurs yuklamasi yuqori, iqtisodiy qaytim esa nisbatan pastdir. Bu holat qishloq xo'jaligi mahsulotining turi, mehnat zichligi, bog'dorchilik ulushi va ichki xo'jalik boshqaruvi bilan izohlanadi [8; 9].

Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy-geografik baholashda kamida uch darajadagi hududiy tafovutni hisobga olish zarur: **Birinchi daraja** – viloyatning markaziy va tarixiy sug'oriladigan qismlari bo'lib, bu yerda aholi zichligi va agrar bosim yuqori. Bu hududlarda yer-suv resurslarining ijtimoiy qiymati eng yuqori bo'lib, intensiv texnologiyalar va ko'p tarmoqli ixtisoslashuv talab etiladi. **Ikkinchi daraja** – o'tish hududlari bo'lib, ularda suv resurslari va mehnat resurslari nisbatan muvozanatlashgan, ammo ishlab chiqarish ixtisoslashuvi barqaror emas. Bu zonalarda resurslardan foydalanishni optimallashtirish va xo'jalik tuzilmasini takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. **Uchinchi daraja** – tabiiy cheklovlari kuchliroq bo'lgan chekka tumanlar bo'lib, bu yerda suv taqchilligi va yerlarning o'zlashtirilish darajasi hududiy siyosatning differensial yondashuvini talab qiladi [4; 10].

Tadqiqot materiallarida kuzatilgan yana bir muhim jihat – ko'p yillik daraxtzorlar ulushining ortishi va ekin maydonlarining qisqarishi – viloyat agrar makonida tarkibiy transformatsiyaning kuchayganini bildiradi. Bu jarayonni ijobiy baholash mumkin, chunki bog'dorchilik va uzumchilikning daromadliligi yuqori, mahsulotni qayta ishlash zanjiri kengroq va aholi bandligi uchun ko'proq qiymat yaratadi. Biroq bu yo'nalish suv resurslarini

boshqarishning yangi talablarini ham yuzaga keltiradi: suv berish rejimi, vegetatsiya davri, agrotexnik tadbirlar va logistika imkoniyatlari mutlaqo boshqacha tashkil etilishi lozim [6; 13].

Demak, Samarqand viloyati uchun sug'oriladigan yer va suv resurslaridan foydalanishni takomillashtirishning asosiy sharti hududiy ma'lumotlarni boshqaruv qarorlariga integratsiya qilishdir. Tumanlar kesimida resurslar, aholi va hosildorlik ko'rsatkichlari yagona raqamli platformada yuritilsa, yer-suv nisbatidagi nomutanosibliklar erta aniqlanadi, suv sarfi manzilli boshqariladi va qishloq joylarda ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiluvchi ustuvor loyihalarni aniq belgilash mumkin bo'ladi [2; 7].

Xulosa. Samarqand viloyatida sug'oriladigan yer va suv resurslaridan foydalanishning ijtimoiy-geografik jihatlari hududiy tafovutlar, demografik bosim va resurslardan foydalanish samaradorligi o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni namoyon etadi. 2010–2024-yillarda viloyatda jami sug'oriladigan yerlar maydoni deyarli o'zgartirilmagan bo'lsa-da, aholi sonining jadal ortishi bir kishiga to'g'ri keladigan resurs ulushini sezilarli kamaytirdi. Bu esa qishloq joylarda yerning iqtisodiy qiymati bilan bir qatorda uning ijtimoiy ahamiyatini ham kuchaytirdi.

Viloyat ichida yer va suv resurslari bir xilda taqsimlanmagan. Urgut, Tayloq, Ishtixon va Bulung'ur tumanlarida suvdan foydalanish samaradorligi yuqori bo'lsa, Pastdarg'om, Paxtachi, Narpay va Kattaqo'rg'on hududlarida suv sarfi bilan iqtisodiy qaytim o'rtasida nomutanosiblik kuchliroq. Bu holat tumanlar bo'yicha ixtisoslashgan boshqaruv choralari talab etadi. Shuningdek, ekin maydonlarining qisqarishi va ko'p yillik daraxtzorlar ulushining ortishi viloyat agrar makonida yangi tarkibiy moslashuv yuz berayotganini ko'rsatadi.

Shu asosda quyidagi **ilmiy-amaliy xulosalar va takliflarni** ilgari surish mumkin:

Birinchidan, demografik bosim yuqori hududlarda suvni tejavchi texnologiyalar va intensiv ishlab chiqarish shakllari ustuvor bo'lishi zarur. Urgut, Pastdarg'om, Payariq, Ishtixon va Samarqand tumanlarida tomchilatib sug'orish tizimlarini kengaytirish, yopiq grunt va gidroponika texnologiyalarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, suv taqsimotini tumanlar kesimida raqamlashtirish hamda ichki irrigatsiya infratuzilmasini yangilash talab etiladi. Suv hisobini avtomatlashtirilgan tizimlar orqali yuritish, kanallar va nasosxonalarning texnik holatini yaxshilash, suv yo'qotishlarini kamaytirish chora-tadbirlari amalga oshirilishi lozim.

Uchinchidan, yer-suv resurslarining ijtimoiy samarasi bog'dorchilik, sabzavotchilik va qayta ishlash tarmoqlari bilan integratsiyada yanada yuqori natija beradi. Mahalliy qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun logistika va sovetish infratuzilmasini yaratish qo'shimcha ish o'rinlari va qo'shilgan qiymat yaratishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, hududiy boshqaruv tizimida tabiiy omillar bilan bir qatorda aholi soni, mehnat zichligi va ijtimoiy ehtiyojlar ham majburiy indikator sifatida hisobga olinishi lozim. Tumanlar uchun resurs me'yorlarini belgilashda nafaqat texnik, balki ijtimoiy-iqtisodiy mezonlar ham qo'llanilishi kerak.

Beshinchidan, viloyat miqyosida yer va suv resurslarini boshqarishning yagona axborot tizimini yaratish zarur. Geoinformatsion texnologiyalar, masofadan zondlash ma'lumotlari va hududiy statistikani birlashtiruvchi raqamli platforma qarorlar qabul qilish jarayonini ilmiy asoslashga imkon beradi.

Demak, Samarqand viloyatida sug'oriladigan yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasi o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy-geografik yondashuvni talab qiluvchi strategik masaladir. Resurslarning hududiy taqsimlanishi, aholi dinamikasi, xo'jalik ixtisoslashuvi va boshqaruv mexanizmlarini yagona tizimda ko'rib chiqish viloyatning barqaror rivojlanishi uchun zaruriy shartdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. – Toshkent, 2000.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-son

"O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi" to'g'risidagi Farmoni.

3. Namozov J.A. Yer – suv resurslaridan foydalanish geografiyasi (Samarqand viloyati materiallari asosida). – T.: ZEBO PRINT, 2022. – 136 b.

4. Ibragimov L.Z., Namozov J.A. Qishloq xo'jaligi geografiyasi. – Samarqand: SamDU, 2025. – 164 b.

5. Namozov J.A., Dovulov N.L. Territorial aspects of water resources usage in Samarkand region // Science and World. – 2017. – Vol. I, No. 11(51). – P. 60–63.

6. Namozov J.A., Ibragimov L.Z. Territorial structure and change dynamics of irrigated lands of the Zarafshan region // SamDU ilmiy axborotnomasi. – 2025. – No. 5/2 (153). – B. 87–93.

7. Namozov J.A., Tashtayeva S.K., Urinova N.S., Kasimov H.S. Dynamics of implementation of modern irrigation technologies in Samarqand region // AIP Conference Proceedings. – 2025. – P. 5–18.

8. Fayzullayev M.A. O'zbekiston qishloq xo'jaligi rivojlanishining iqtisodiy-geografik xususiyatlari. Geog. fan. dok. (DSc) diss. – T., 2024. – 196 b.

9. Ahmadaliev Yu.I. Yer resurslaridan foydalanish geokologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 340 b.

10. Oymatov R.K. Iqlim o'zgarishi sharoitida sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining ekologik holatini xaritaga olishning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish (Zarafshon vodiysi misolida). T.f.d. (DSc) diss. – T. – 239 b.

11. Molden D. (ed.) Water for Food, Water for Life: A Comprehensive Assessment of Water Management in Agriculture. – London: Earthscan, 2007. – 645 p.

12. Falkenmark M., Rockström J. Balancing Water for Humans and Nature: The New Approach in Ecohydrology. – London: Earthscan, 2004. – 247 p.

13. Lal R. Soil Quality and Agricultural Sustainability. – Boca Raton: CRC Press, 1998. – 400 p.

14. Namozov J.A., Arabov N., Aduramanov X., Nasimov D., Ibragimov L.Z. Dynamics of transformation and economic resilience in agricultural lands: an anthropogenic perspective // E3S Web of Conferences. – 2024. – Vol. 541. – 03003.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-son "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Viloyatlar bo'yicha demografik ko'rsatkichlar. – Toshkent, 2024.

Usmonova Y.A., Jumaxanov Sh.Z.*

NAMANGAN SHAHRI HUDUDIY KENGAYISH JARAYONLARINI ANKETA-SO'ROVNOMA METODI ASOSIDA IJTIMOYIY-GEOGRAFIK BAHOLASH

Annotatsiya. Mazkur maqolada anketa-so'rovnoma sotsiologik tadqiqot usuli yordamida Namangan shahrining hududiy kengayishi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi muammolari o'rganilgan. Sotsiologik so'rov jarayonida Namangan shahrining hududiy transformatsiya yo'nalishlari va hududiy kengayish natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, funksional va ekologik o'zgarishlarning ijobiy hamda salbiy jihatlari tadqiq etildi. Shahar hududiy kengayishini rejalashtirishda ustuvor bo'lgan tamoyillar aniqlangan. Respondentlarning reprezentativ fikrlari tahlil qilinib, tegishli xulosalar keltirilgan. Olingan natijalar Namangan shahrining hududiy

* **Usmonova Yulduz Avazbek qizi** – Namangan davlat universiteti Geografiya va Ekologiya asoslari kafedrasida tayanch doktoranti. E-mail: yulyausmonova2000@gmail.com

Jumaxanov Shavkatjon Zairjanovich – Namangan davlat universiteti Geografiya va Ekologiya asoslari kafedrasida dotsenti, geografiya fanlari doktori (DSc). E-mail: jumaxanovshavkatjon@gmail.com

МУНДАРИЖА:
ОГЛАВЛЕНИЕ:
CONTENTS:

ТАБИЙ ГЕОГРАФИЯ, ГЕОЭКОЛОГИЯ ВА ТАБИАТДАН ФОЙДАЛАНИШ
ФИЗИЧЕСКАЯ ГЕОГРАФИЯ, ГЕОЭКОЛОГИЯ И ПРИРОДОПОЛЬЗОВАНИЕ
PHYSICAL GEOGRAPHY, GEOECOLOGY AND ENVIRONMENTAL
MANAGEMENT

Alimkulov N.R., Qarshiboyeva Sh.G'. Mirzacho'lni landshaft-ekologik rayonlashtirish va atrof-muhit muhofazasi masalalari.....	5
Egamberdiyeva Y.X. Toshkent viloyatida quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyatlari haqida.....	11
Ibragimova R.A., Muxtorova Sh.I. Mirzacho'lni geografik tadqiq etish masalalari.....	15
Ibragimova R.A., Usmonov I.H. Nurota tumanida buloqlarning tarqalish xususiyatlari.....	21
Сабитова Н.И., Стельмах А.Г. Комплексное применение технологии ГИС и наземной геоморфологической съёмки при изучении оползневых тел склонов горных систем Байбаксай и Сулисай.....	29
Шамуратова Н.Т. Геотуризм концепциясининг назарий-методологик асослари ва тарихий эволюцияси: халқаро аъналар ва замонавий ёндашувлар интеграцияси.....	36

ТОПОНИМИКА ВА ГЕОГРАФИЯ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ
ТОПОНИМИКА И МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ГЕОГРАФИИ

Avezov M.M., Köksal Ela Ayşe, Doskenova V.B. Geografiya ta'limida kompetensiyaga yo'naltirilgan integrativ baholash modelidan foydalanish imkoniyatlari ("Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" kursi misolida)	46
Avezov M.M., Kadirbayeva D.A. Tabiiy geografiya kurslarida maktab o'quvchilarining amaliy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish.....	55
Mirakmalov M.T., Qodirov D.D. Geografik obyektlarga nom berish jarayonining bosqichlari: amaliy tajriba va huquqiy mexanizmlar.....	63
Eshboyev B.T., Bozorov M.I. Surxondaryo viloyati toponimlarini tasniflash masalalari.....	71
Hakimov K.M., Usmonov M.R. Geografik nomlarni konversiyalash tartib-tamoyillari haqida.....	76

ИҚТИСОДИЙ ВА ИЖТИМОЙ ГЕОГРАФИЯ
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И СОЦИАЛЬНАЯ ГЕОГРАФИЯ
ECONOMIC AND SOCIAL GEOGRAPHY

Musayev B.M. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlari rivojlanishining istiqbol yo'nalishlari.....	85
Namozov J.A. Samarqand viloyati sug'oriladigan yer va suv resurslaridan foydalanishning ijtimoiy-geografik jihatlari.....	90
Usmonova Y.A., Jumaxanov Sh.Z. Namangan shahri hududiy kengayish jarayonlarini anketa-so'rovnomasi metodi asosida ijtimoiy-geografik baholash.....	97

ГИДРОЛОГИЯ, МЕТЕОРОЛОГИЯ ВА ИҚЛИМШУНОСЛИК
ГИДРОЛОГИЯ, МЕТЕОРОЛОГИЯ И КЛИМАТАЛОГИЯ
HYDROLOGY, METEOROLOGY AND CLIMATOLOGY

Хикматов Ф.Х., Аденбаев Б.Е., Умаров А.З., Хайдарова О.А. Кўштепа каналининг гидравлик параметрлари ва унинг сув ўтказиш имкониятини	
---	--